

O'QUVCHI SHAXSINI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI

Azamov Umarxon Yaxyoxonovich

NamDPI instituti o'qituvchisi

umarxonazamov2019@gmail.com +99893 633 05 00

[0009 003 6394 7277](tel:000900363947277)

Imomaliyeva O'g'ilo Valijon qizi

NamDPI instituti talabasi

imomaliyevaogiloy@gmail.com +99893 946 58 88

Annotatsiya. Maqolada o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida tarbiyaning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakl va vositalari hamda ularning shaxs kamolotiga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, tarbiyaning oila, maktab va jamiyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, shaxs, rivojlanish, o'quvchi, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba.

РОЛЬ ВОСПИТАНИЯ В КОМПЛЕКСНОМ РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. статье анализируется роль воспитания в всестороннем развитии личности учащегося. Раскрываются цель и содержание воспитательного процесса, а также его взаимосвязь с семьёй, школой и обществом.

Ключевые слова: воспитание, личность, развитие, воспитанник, духовность, нравственные ценности, социальный опыт.

THE ROLE OF EDUCATION IN THE COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF THE STUDENT'S PERSONALITY

Annotation. The article analyzes the importance of multimedia technologies in the educational process and their didactic potential in developing the intellectual abilities of future primary school teachers. Based on the requirements of modern education, the essence of intellectual abilities, the pedagogical advantages of multimedia tools, and their role in the educational process are highlighted. In addition, methods and forms applicable in practice are recommended.

Keywords: upbringing, personality, development, reader, spirituality, moral values, social experience.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Har bir o'quvchining

shaxs sifatida shakllanishi, intellektual, ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishi bevosita tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

O'quvchi shaxsining rivojlanishi nafaqat maktab va jamiyat ta'siri, balki oilaviy muhit orqali ham shakllanadi. Oiladagi munosabatlar, tarbiya uslublari, ota-onaning bolaga bo'lgan e'tibori bolaning kelajakdagi shaxsiyati va jamiyatdagi o'rniga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, davlatimiz rahbari tomonidan oilaviy ta'lim va tarbiyani mustahkamlash borasida qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "Oila institutini mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi farmoni oilaning ta'lim va tarbiyadagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan.[1] Shuningdek, 2022-yil 14-martdagi "Maktab va oila hamkorligini mustahkamlash to'g'risida"gi qaror o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida oilaviy muhitning ahamiyatini yanada oshirishga qaratilgan.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Psixologik-pedagogik manbalarda tarbiya bola shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'proq o'rganiladi. O'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat va ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlarda shaxsning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va salohiyatini ochishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalar olib boriladi. Ushbu tadqiqotlar o'quvchining o'ziga xos iqtidorini aniqlash, ijodkorligini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligini ta'minlash, ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishini nazarda tutadi.

Sharq allomalari shaxs shakllanishini, avvalo, tarbiya orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida talqin qilganlar.

Abu Nasr Forobiy tarbiyani insonning aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatlarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiluvchi vosita deb biladi. Uning fikricha shaxs yaxshi tarbiya olganida komillikka erishadi. Noto'g'ri tarbiya esa jamiyat rivojiga salbiy ta'sir qiladi degan fikrlarni ilgari suradi.

Ibn Sino esa bola tarbiyasini yoshga mos bosqichlarda olib borishni ta'kidlab, tarbiyaning shaxs ruhiyati va fe'l-atvori shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutishini

asoslaydi. Uning fikricha, tarbiya aqlning yetilishi va xarakterning shakllanishining poydevori hisoblanadi.

Navoiy asarlarida esa tarbiya insonning ma'naviy dunyosini shakllantiradigan asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. U tarbiyalangan shaxsni halol, adolatli, vijdonli inson sifatida tasvirlaydi.

Komenskiy tarbiyani shaxs shakllanishining markaziy omili sifatida ko'rib, tarbiya va ta'limni ajralmas jarayon deb bilgan. "Buyuk didaktika"da insonni har tomonlama rivojlantirish tarbiya samaradorligiga bog'liqligi ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy o'zbek pedagogikasining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, tarbiya masalasini shaxsning kamolotiga eng bevosita ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil sifatida talqin qilgan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Pedagogiya" kabi asarlarida tarbiya mazmuni chuqur yoritilgan.

Tadqiqot metodlari. Shaxsni har tomonlama shakllantirishda tarbiya metodlarini o'zni beqiyos. Tarbiyaviy metodlar – bu tarbiyalanuvchi shaxsining dunyoqarashi, xulqi, e'tiqodi, ma'naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy faoliyatini maqsadli shakllantirishga qaratilgan pedagogik vositalar majmuidir.

Pedagogika fanida tarbiya metodlari odatda 3 yirik guruhga bo'linadi:

1. Shaxs ongiga ta'sir etish metodlari

Bu metodlar o'quvchining dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan.

➤ Suhbat (muloqot) – o'quvchi bilan fikrlashish, tahlil, mushohada yuritish orqali ongda tushuncha shakllantirish.

➤ Ma'ruza, hikoya, tushuntirish – tarbiyaviy g'oyalarni aniq, dalillarga asoslangan holda bayon qilish.

➤ Nasihat– oqibatni tushuntirish, to'g'ri xatti-harakatning mohiyatini ko'rsatish.

➤ Axloqiy suhbat va munozara – bahs-munozara orqali to'g'ri e'tiqod va qadriyatlarni mustahkamlash.

➤ O'rnak ko'rsatish (namuna) – tarbiyachining o'z shaxsiy namunasi eng kuchli ta'sir vositasidir.

2. Shaxs faoliyatini tashkil etish va unga tajriba berish metodlari

Bu metodlar o'quvchining faol hayotiy ko'nikmalari, ijtimoiy malakasi va odatlarini shakllantirishga qaratiladi.

3. Xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash metodlari

Bu metodlar o'quvchida xatti-harakatlarning motivatsiyasi va odatiy ijobiy yo'nalishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaning metodlarini to'g'ri tanlash, izchillik, pedagogning shaxsiy namunasi, o'quvchi faoliyatini to'g'ri tashkil etish — shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishining asosiy shartidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi — bu uning intellektual, ma'naviy, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan yetuk inson bo'lib shakllanishidir. Tarbiya bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi sifatida o'quvchida ijobiy fazilatlar,

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni barkamol inson sifatida tarbiyalashdir. Tarbiya — bu shaxsning axloqiy, ma'naviy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan shakllanishini ta'minlaydigan uzluksiz jarayondir. Shu bois, zamonaviy pedagogika o'quvchi shaxsini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini asosiy mezon sifatida ko'radi.

O'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida quyidagi tarbiya yo'nalishlari muhim o'rin tutadi:

- Aqliy tarbiya – bu o'quvchida tafakkur, tahlil, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. U fan asoslarini puxta o'zlashtirish, kitobxonlik madaniyati va intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

- Axloqiy tarbiya – o'quvchida insoniy fazilatlar, odob, halollik, vijdonlilik, milliy g'urur va fuqarolik burchi tuyg'usini shakllantiradi. Axloqiy tarbiya — jamiyatda muomala madaniyatini, mas'uliyatni va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rgatadi.

- Estetik tarbiya – o'quvchilarda go'zallikka, san'atga, tabiatga, inson mehnatiga muhabbat uyg'otadi. Go'zallikni anglay olish qobiliyati estetik didni rivojlantiradi, bu esa shaxsni ma'naviy boy qiladi.

• Mehnat tarbiyasi – o'quvchiga mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik, tejamkorlik, kasbga hurmat va jamoada ishlash madaniyatini o'rgatadi. Bu tarbiya insonni hayotga tayyorlaydi.

• Jismoniy tarbiya – sog'lom turmush tarzini shakllantirish, chiniqish, to'g'ri ovqatlanish va sportga qiziqishni kuchaytiradi. Jismoniy tarbiya insonning ruhiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

• Ma'naviy va vatanparvarlik tarbiyasi – o'quvchining milliy qadriyatlarga hurmatini, Vatanga sadoqatini, tarixiy xotiraga ehtiromini kuchaytiradi.

Shaxsning har tomonlama rivojlanishida oila, maktab va jamiyatning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Oila – birlamchi tarbiya maskani bo'lib, unda bolaning axloqiy asoslari shakllanadi. Maktab esa bu jarayonni ilmiy-pedagogik asosda davom ettiradi, jamiyat esa uni ijtimoiy tajriba bilan boyitadi.[6]

Tarbiya jarayonida o'qituvchi shaxsiy namunasi, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, jamoaviy ishlar, suhbat va treninglar orqali o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv uslublardan foydalanish tarbiya jarayonining samaradorligini yanada kuchaytiradi. .[7]

Tarbiya o'quvchi shaxsini ijtimoiy tajribani egallash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish jarayonidir. U shaxsda mustaqil fikrlash, irodalilik, sabr-toqat, mas'uliyat, bag'rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Pedagogika fanida "tarbiya" tushunchasi faqat odob-axloqni o'rgatish emas, balki shaxsni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirish tizimi sifatida talqin qilinadi. Shaxs rivojlanishida tarbiya uchta asosiy vazifani bajaradi:

- shaxsning axloqiy me'yorlarini shakllantirish,
- bilim va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash,
- ijtimoiy moslashuvni ta'minlash.

Har bir o'quvchining kamolot bosqichlari tarbiya jarayonidagi izchillik va ongli yondashuvga bog'liqdir. Shu sababli tarbiya tizimi o'qituvchining pedagogik mahorati, oila muhiti va jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlar bilan uzviy aloqada bo'ladi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishda tarbiya faqat maktab doirasida emas, balki oila va jamiyat bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.[7]

- Oila – tarbiyaning birlamchi muhitidir. Bola birinchi navbatda oilada axloqiy qadriyatlarni, muomala madaniyatini va mehr-muhabbatni o'rganadi.
- Maktab – bola ijtimoiylashuvi, jamoa bilan muloqoti va intellektual rivojlanishining markazidir. O'qituvchi tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisi bo'lib, shaxsiy namunasi orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.
- Jamiyat – bola uchun keng ijtimoiy muhit yaratadi. Madaniy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, sport musobaqalari va ko'ngillilar faoliyati o'quvchilarning fuqarolik ongini rivojlantiradi.

Uch muhit — oila, maktab va jamiyat — uyg'unlikda ishlaganda tarbiya samaradorligi ortadi, natijada o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida tarbiya jarayoniga innovatsion va interaktiv yondashuvlar joriy etilmoqda. Masalan:

- Trening va trening o'yinlari,
- Keys-stadi (vaziyatli tahlil),
- Rolli o'yinlar,
- Ijodiy loyiha va muammoli o'qitish usullari o'quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Shuningdek, multimedia texnologiyalari, raqamli ta'lim vositalari va interaktiv platformalar orqali tarbiya jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Bu vositalar orqali o'quvchilar vizual va eshitish orqali ma'lumotni tezroq qabul qiladi, bu esa tarbiyaviy ta'sirning kuchayishiga olib keladi.[5]

Tarbiyaning muvaffaqiyati o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olishga ham bog'liq. Har bir o'quvchi individual qobiliyat, xarakter, temperamenti bilan farqlanadi.

Shuning uchun o'qituvchi tarbiya jarayonida:

- o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olishi,
- motivatsiya va rag'batlantirish usullaridan foydalangan holda ijobiy emotsional

muhit yaratishi,

- jamoada sog'lom psixologik iqlimni ta'minlashi lozim.

Tarbiyada ishonch, samimiyat, hurmat va adolat tamoyillari ustuvor bo'lishi kerak. Bunday muhitda o'quvchi o'zini erkin his qiladi, o'z fikrini bildirishdan qo'rqmaydi va ijobiy o'zgarishlarga intiladi.[4]

Tarbiyaning natijasi — bu tarbiyaviy ta'sirlar natijasida o'quvchida hosil bo'lgan shaxsiy sifatlar, qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va ijtimoiy ko'nikmalar majmuasidir. Ya'ni, tarbiya faqat bilim berish emas, balki insonni **barkamol shaxs** sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Samarali tashkil etilgan tarbiya natijasida o'quvchi:

- mustaqil fikrlay oladigan,
- ijtimoiy mas'uliyatli,
- ma'naviy yetuk,
- milliy qadriyatlarga sodiq,
- ijobiy hayotiy pozitsiyaga ega inson sifatida shakllanadi.

Shu sababli har bir pedagogning vazifasi faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda insoniylik, adolat, halollik, mehr-oqibat, Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni tarbiyalashdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda tarbiyasiz ta'lim samarasiz, tarbiya bilan uyg'unlashgan ta'lim esa barkamol shaxsni voyaga yetkazadi. Shuning uchun o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda tarbiya asosiy o'rin tutadi. U nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, vatanparvar insonni shakllantirishning poydevoridir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shuni bilsak bo'ladiki, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiya insonning butun hayoti davomida davom etadigan murakkab, ammo eng zarur jarayondir. U orqali o'quvchida nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki insoniy fazilatlar, ma'naviyat, odob-axloq va to'g'ri hayotiy qarashlar shakllanadi.

Tarbiyaning kuchi uning ta'sirida. Har bir o'qituvchi shuni unutmasligi kerakki, u darsda nafaqat fan o'rgatadi, balki inson tarbiyalaydi. Shu bois tarbiya

jarayonida mehr, e'tibor, sabr va shaxsiy namunaga alohida ahamiyat berish zarur. Chunki o'quvchi o'qituvchining har bir so'zi, harakati va munosabatidan o'rnak oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 11-sentyabrda qabul qilingan "Oila institutini mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 14-martdagi "Maktab va oila hamkorligini mustahkamlash to'g'risida"gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
4. Yo'ldoshev J.G. "Tarbiya nazariyasi va metodikasi". Namangan, 2022.
5. Hasanov M. "Shaxs rivojlanishida tarbiyaning o'rni". Toshkent, 2023.
6. Jalilova Nilufar Toxir qizi Pedagogika nazariyasi va tarixi O'quv qo'llanma Toshkent – 2024 "Science and Innovation" nashriyoti.
7. N. X. Rahmonqulova K. O. Matnazarova Pedagogika nazariyasi ya tarixi «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti toshkent – 2010
8. Бадритдинова, М. Б., & Аъзамов, У. (2020). Психологические особенности развития когнитивного стиля в учебном процессе. *Ученый XXI века*, (1 (60))
9. Азамов, У. П. Н., & Гаффаров, А. С. Н. Плюсы И Минусы Использования Метода Наказания В Воспитательном Процессе.
10. A'zamov, U. (2020). Oila farzand tarbiyasining asosiy o'g'inidir. *Евразийский научный журнал*, (2), 38-39.
11. Qayumov, B. Z. (2025). O'smirlarda kreativlik namoyon bo'lishining hududiy tafovutlari. maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6).
12. Азамов, У. Я. (2023). Шахс шаклланишида мулоқот маданиятининг ўрни.